

## **BOSHQARUV RAISI ULUG‘BEK MUSTAFOYEVNING TIZIMDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH YUZASIDAN SOHA MUTAXASSISLARI HAMDA AHOLIGA YO‘LLAGAN MUROJAATI**

Bugun barchamiz guvoh bo‘layotganimizdek, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari takomillashtirilib, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, korrupsiyaviy omillarga chek qo‘yishga qaratilgan, bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ma‘lumki, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak, huquqiy ta‘lim va tarbiya jihatdan yetuk bo‘lgan insonlar salbiy illat bo‘lmish korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar. Chunonchi, bugungi kunda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini doimiy oshirib borish masalalariga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Darhaqiqat, o‘tgan davrda ushbu jirkanch illat bilan murosasiz kurashishning xalqaro standartlarga asoslangan tizimi amaliyotga joriy etilib, xususan, korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va tizimli tahlil qilish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf qilish uchun mas‘ul bo‘lgan alohida organ – “Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi” tashkil etildi.

Ahamiyatlisi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda ham Agentlik hamkorligida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ta‘kidlash joizki, Jamiyat markaziy apparati hamda uning tarkibiy korxonalarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat xizmati” faoliyati yo‘lga qo‘yilishi korrupsiyaga qarshi ichkaridan turib kurashish, salbiy oqibatlariga olib keluvchi korrupsion holatlarning oldini olish, “Kasalni davolashdan ko‘ra oldini olgan ma‘qul” tamoyili asosidagi huquqiy mexanizmlarni joriy etish imkonini berdi.

Xususan, o‘tgan qisqa davr mobaynida Jamiyat va uning tarkibiy filiallarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 16 dan ortiq ichki idoraviy hujjat ishlab chiqilib, bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Misol o‘rnida, 2021 yil 10 noyabrdan mavjud barcha bo‘sh (vakant) lavozimlarga malakali mutaxassislarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish amaliyoti joriy etilgani, Jamiyatning rasmiy [www.het.uz](http://www.het.uz) saytida tizimdagi korrupsion holatlarning mavjudligi, ularning ko‘rinishlariga baho berish hamda aholi fikrini o‘rganish maqsadida doimiy ishlovchi anonim so‘rovnoma o‘tkazish sahifasi joylashtirilganini keltirib o‘tish mumkin.

Bundan tashqari, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda 2021 yilda ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi” va ISO 9001:2015 “Sifat menejmenti tizimi” standartlari joriy qilinib, 26 nafar rahbar va ishchi-xodim ISO 37001:2016 standarti bo‘yicha maxsus sertifikatlariga ega bo‘lgani jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli say-harakatlar olib borilayotganidan dalolat bermoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, xalq farovonligi hamda investitsion muhitni yaxshilash yo‘lida boshqa sohalar qatori energetika sohasida ham korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, ushbu jirkanch illat bilan kurashishda nafaqat davlat organlari, balki jamiyat, umuman olganda, barcha fuqarolarimiz mas‘uliyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, Jamiyatning barcha xodimlarini hamda kelajagimizga befarq bo‘lmagan fuqarolarimizni qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi va har qanday noqonuniy hatti-xarakatlarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligi tamoyillariga tayangan holda, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirilishi jarayonlarida faol ishtirok etishga chaqirib qolaman.

Eslatib o‘tmoqchiman, tizimdagi qonunbuzarlik va korrupsiya holatlariga duch kelsangiz, Jamiyatning 1154 raqamli “Ishonch telefoni” yoki “Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmati”ning (78) 150-75-61 telefon raqami orqali murojaat qilishingiz mumkin. Har bir murojaat qonunda belgilangan tartibda shaxsiy nazoratim ostida ko‘rib chiqiladi.

**Ulug‘bek Mustafoyev,  
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Boshqaruv raisi.**